

## TEXNIKA TERMINLARINING TASNIFIGA DOIR

**Maftuna Axmedova,***NavDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada texnikaga oid terminlar va ularning izohli lug'atlarda berilishi haqida so'z yuritilib, ularning struktur jihatdan tuzilishi, xalqaro terminelementli terminlarning tadqiqiga bag'ishlangan. Ular ishtirokida yasalgan terminlarning struktur va etimologik jihatdan tuzilishi haqida to'xtalib o'tilgan hamda ayrim terminlarni izohli lug'atlarda qiyoslash orqali ilmiy xulosalar izohlangan.

**Kalit so'zlar:** izohli lug'at, termin, element, xalqaro terminelementlar, leksema, soha terminlari, gibrid terminlar.

**Аннотация.** В статье рассматриваются технические термины и их представление в толковых словарях, их структурная структура, а также изучение терминов, содержащих элементы международного терминологии. Обсуждается структурная и этимологическая структура терминов, созданных с их участием, и на основе сравнения некоторых терминов в толковых словарях приводятся научные выводы.

**Ключевые слова:** пояснительный словарь, термин, элемент, элементы международных терминов, лексема, термины полевых областей, гибридные термины.

**Abstract.** The article discusses technical terms and their presentation in explanatory dictionaries, their structural structure, and the study of terms with international term elements. The structural and etymological structure of terms created with their participation are discussed, and scientific conclusions are explained by comparing some terms in explanatory dictionaries.

**Keywords:** explanatory dictionary, term, element, international term elements, lexeme, field terms, hybrid terms.

**Kirish.** Jamiyat hayotidagi rivojlanishlar, albatta, ijtimoiy hodisa bo'lmish tilga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu hodisa, birinchi navbatda, tilning leksik tarkibida ko'rinish boshlaydi, ya'ni tilning lug'at tarkibi boyib, o'zgarishlarga uchrab boraveradi. Jumladan, jamiyatdagi ma'lum bir soha taraqqiyotining, o'zgarishlarining ayni namoyishi uning terminlari orqali aks etadi. Bu esa, yangi lug'aviy birliklarning paydo bo'lishi va ma'lum lug'aviy birliklarning yo'q bo'lishi (iste'moldan chiqishi), so'zlarning yangi ma'nolar kasb etishi va ayrim ma'nolarining yo'qolishi kabi hodisalardan iborat bo'ladi.[2;5] Ana shunday hodisalar har bir tilning leksikografiyasini boyitadi, to'ldiradi, nazariy va amaliy tadqiqotlar uchun, ilmiy kashfiyotlar uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek tili lug'at boyligining zamonaviy terminologik tizimlarini ilm-fanga, tibbiyotga, kimyo-texnologiyaga, qurilish va sanoat sohasiga, texnikaga oid terminlar tashkil qiladi. O'zbek tilidagi zamonaviy terminologik tizimlarni o'rganish, soha terminlarini to'plash, saralash, tartibga solish va shu asosda lug'atlar tuzib nashr etish ishlari asosan o'tgan asrning 30-yillaridan boshlangan. Barcha fan sohaslarining terminologik lug'atlari kabi texnikaga oid lug'atlar ham bir tilli, ikki tilli va uch tilli maxsus lug'atlarning yaratilgani va izohli lug'atlarda ularning xronologik tavsifida berilgani, aynan shu soha vakillarini quvontiradi.

O'zbek tili lug'at boyligining ko'payishida, rivojlanib taraqqiy etib borishida, bugungi kunda boshqa sohalarda bo'lgani kabi texnika sohasidagi kashf etilgan

kashfiyotlarning, ilmiy yangiliklarning ham hissasi beqiyosdir. Lugʻat tarkibining ortib borishi yaratilayotgan texnika sohasidagi tadqiqotlar asosidagi ilmiy-texnik terminlar va ularning ijtimoiy hayotdagi faolligi bilan bevosita bogʻliq.

Texnika va texnologiya tushunchalari va ular bilan bogʻliq boʻlgan barcha sohalar terminlarining koʻpchilik qismi oʻzga tillarga tegishli. Oʻz-oʻzidan texnika terminologiyasining asosiy qismini oʻzlashma qatlamga oid lugʻaviy birliklar tashkil qiladi. Shunday boʻlsa-da, oʻzbek tiliga oʻz til imkoniyatidan kelib chiqqan holda tarjima qilingan birliklar ham bor. Tarjima qilingan terminlarning yaʼni oʻz qatlam terminlarining koʻpchiligi 2 tomli “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” (1981-yil) va 5 jildli “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” (2020-yil) da koʻp maʼnoli soʻz sifatida izohlab berilgan. Tahlilga tortish natijasida, maʼlum bir terminlarning maxsus pometalar bilan har ikkala lugʻatda ham berilganligini, lekin ayrim terminlarning izohi aynan berilgan-u, maxsus pometa bilan berilmaganligini koʻrish mumkin. Tadqiqot obyekti texnika terminlari boʻlganligi sababli, lugʻatlardagi maxsus pometa bilan berilgan terminlar oʻrganildi.

**Adabiyotlar sharhi.** Chorak asrdan koʻproq vaqt oraliqida Oʻzbek tilining izohli lugʻati 3 marta qayta ishlandi. Z.M.Maʼrufov tahriri ostida 2 tomli 60 ming soʻz va soʻz birikmasini oʻzida jamlagan “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” 1981-yilda yaratilgan boʻlsa, A.P.Madvaliyev tahriri ostida 2006-2008-yillarda kirill alifbosida, 2020-yilda lotin alifbosida 5 jildli 80 mingdan ortiq soʻz va soʻz birikmasini oʻzida jamlagan “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” ishlab chiqildi. Izohli lugʻatlarda berilgan texnika va texnologiyaga oid terminlardan (davrdagi farqlarni) oʻrganish, tahlil qilish uchun obyekt sifatida foydalanildi.

Maʼlumki, barcha izohli lugʻatlarning terminologik sohaga doir oʻrganilish tadqiqini maxsus pometalarsiz tasavvur qilish ancha murakkab. Chunki, tadqiqotlarning aynan lugʻatshunoslik mavzusi bilan aloqador soʻzlarning leksikografik tavsifi uchun xizmat qiluvchi belgi-ishoralar tizimi xususiy va umumiy belgilarni oʻz ichiga olishi taʼkidlanadi. [6;43]

Barcha fan sohalarining terminologik lugʻatlari kabi texnikaga oid lugʻatlar ham bir tilli, ikki tilli va uch tilli maxsus lugʻatlarning yaratilgani va izohli lugʻatlarda ularning xronologik tavsifda berilgani, aynan shu soha vakillarini quvontiradi. 2006-yilda nashrdan chiqqan Oʻzbek tilining izohli lugʻatida keltirilgan texnikaga oid terminlarning tahliliga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, lugʻatning asosiy va eng muhim jihati, unda oʻzbek tiliga boshqa xorijiy tillardan kirib kelgan oʻzlashgan soʻz va terminlarning etimologik jihatdan toʻliq maʼlumot berilganligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, lugʻatda ilmiy-texnikaviy terminlar hosil qilishda *avia-*, *avto-*, *mikro-* kabi soʻzlar yaʼni “xalqaro terminelementlar”<sup>123</sup> bilan berilganligi terminlarning struktur jihatdan turli shakllarda boʻlishiga sabab boʻlgan. Masalan, birgina *avia-* termini orqali 9 ta texniga oid termin, *avto-* termini orqali esa 46 ta texnika terminining etimologik kelib chiqishi, izohlari ushbu lugʻatda berilgan. *Avtobus*, *avtodrom*, *avtozavod*, *avtoruchka*, *avtosalon* kabi

terminlarning har ikkala qismi xorijiy tilga mansub til elementidan hosil bo'lgan bo'lsa, *avtonazorat, avtopoyga, avtouy*, kabi qo'shma so'z shaklida, *avtomatlashmoq, avtomobilsoz, azotlamoq, azotli* kabi yasama qo'shimchalar qo'shilishi orqali ham bir qancha texnika terminlari hosil qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Texnika va uning negizidan o'sib chiqqan texnologiya sohasi juda ko'p tarmoqlidir. Shu jihatdan kelib chiqib, tadqiqot obyekti sifatida texnikaga doir termin va tushunchalar, ba'zi tabiiy fanlarga ham, texnikaga ham aloqador bo'lgan tushuntirishlar, texnologik jarayonlarni ifodalovchi birikma terminlar, mexanizmlar, turli sohalarga mansub o'lchov birliklari va asboblari, apparatlar, materiallar, sohaga oid bo'lgan protsessual qonun-qoidalar va ularning vazifasi qamrab olindi. Tahlil jarayonida 5 jildli (2020-yil) O'TIL da keltirilgan termin va tushunchalarga doir kiritilgan maqolalarning izohi kengroq, terminning kelib chiqishi tarixi ham ancha batafsil yoritilganligi kuzatildi. 2 tomli O'TILda esa, termin yoki tushuncha nomi, o'zlashgan qatlamga oid bo'lsa, qaysi tildan olingani va vazifasi, ko'p ma'noli so'z bo'lsa, arab raqamlari bilan ketma-ketlikda ifodalangan ma'nolari, omonim so'z bo'lsa, rim raqamlari bilan ma'nolari izohlanganini ko'rishimiz mumkin.

Lug'atda texnika terminlari, asosan, tub so'zlardan, ot+ot konstruksiyali qo'shma so'zlardan, shaxs oti yasovchi va fe'l so'z turkumini hosil qiluvchi yasovchi qo'shimchalardan ko'proq foydalanilgan.

**Natijalar.** *Bak, binokl, bolt, bunker, vagon, ventil, gorelka, domna, gips* kabi tub so'zli terminlar lug'atda bir qancha ma'nolarda kelishi izohlangan.

ot+ot konstruksiyali terminlar:

*Avtovokzal, avtotransport, avtosug'urgich, aeroklub, aeromexanika, aerochana, balneotexnika, bortmexanik, bortprovodnik, vibrometr, vibrato'qmoq, vibrog'alvir, benzobak, videokasseta, gidrosamolyot, radioapparat, radioteleskop, turbogenerator, elektropayvand, elektromotor, qozonxona; videoapparatura, videotelefon, videotexnika, gidroizolyator, gidronasos, gidropodyomnik* kabi.

ot+fe'l konstruksiyali terminlar:

*avtosug'orgich, betonqorgich, videokuchaytirgich, changso'rg'ich, radioportlatgich, radiouzatkich, changitkich, bolajratgich;*

Bundan tashqari, quyidagi yasaliq modellari sifatida olingan misollar "O'zbek tilining izohli lug'ati" har ikkala nashrida ham uchramaydi lekin soha terminologiyasida ularning qo'llanilishi juda faol, bunday birliklar sohaga oid boshqa lug'atlarda va adabiyotlarda ifodalangan:

sifat+ot konstruksiyali terminlar:

*chalaotkazgich, ravish+ot; qisqatutashuv, tezyurar; olmosh+ot: o'ziyurar, o'ziuchar, o'ziag'darar* kabi.

2 tomli "O'zbek tilining izohli lug'ati" (1981-yil) nashr etilganidan buyon o'tgan davr mobaynida juda ko'plab texnikaga oid termin, atama va tushunchalar kirib keldi va

lugʻatda berilganlarining maʼnolari kengaydi va bular oʻz navbatida yangi toʻldirilgan, qayta tahrirlangan va bugungi tilimizning meʼyorlariga xos boʻlgan yangi lugʻatga boʻlgan ehtiyojni keltirib chiqardi. Masalan: *vanna*, *bandaj*, kabi terminlarning 2 tomli “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da (1981-yil) faqat bir maʼnoda berilgan va uning vazifasi haqida fikr yuritilgan:

Bandaj [ r <fr] Tananing kasal joyini normal holatda tutib turish uchun tangʻib bogʻlab qoʻyiladigan maxsus tortqi, qullob. OʻTIL 2 tomli (1981-yil) 78-bet.

Vanna [ r] **1** Choʻmilish uchun belgilangan maxsus uzun tos. *Sirlangan vanna*. *Vannada choʻmilmoq* / Texnikada har xil eritma, suyuqlik va sh.k.solish yoki turli protsseslar olib borish uchun belgilangan idish.

5 jildli “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da esa, xuddi shu leksemalarning maʼnolari kengaygan va ular maxsus pometa bilan bilan berilgan:

Bandaj [fr. Bandage – belbogʻ, bogʻich] **1** Homiladorlik va undan keyingi davrda, operatsiyadan oldin yoki keyin tananing tegishli (kasal) joyini normal holatda tutib turish uchun tangʻib bogʻlanadigan (kiyiladigan) maxsus kamar, belbogʻ. **2.** *tex.* Mashina detallari yoki konstruksiyalarning puxtaligi va chidamliligini oshirish maqsadida ularga kiygiziladigan metall halqa.

Vanna [ *lot* vannus – idish, kosa] **1** Choʻmilish, yuvinish uchun yasalgan katta uzunchoq tos, idish. *Sirlangan vanna*. **2.***tex.* Har xil eritma, suyuqlik va sh.k.ni solish yoki turli jarayonlarni olib boorish uchun foydalaniladigan maxsus idish. **3** Gigiyena va profilaktika maqsadida suv, balchiq, havo yoki oftob taʼsir ettirish yoʻli bilan amalga oshiriladigan muolajalar; davolash (davolanish)ning shunday vositasi.

*Biplan, ballaster, vagranka, detonatsiya, distillyatsiya, domkrat, drezina, kalit, kesma, kommutator, korobka, nitrogliserin, rubilnik, taqsimlagich, xurushlamoq, siklon* kabi leksemalar 2 tomli “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da maxsus pometa bilan berilmagan texnikaga oid terminlardir.

2006-2008-yillarda yangi chop etilgan 5 jildli Oʻzbek tilining izohli lugʻati (2020-yil lotin alifbosida) mualliflar aytganidek, “Yangi koʻp jildli izohli lugʻatni tuzishda 1981-yilda nashr etilgan ikki jildli izohli lugʻat materiallaridan foydalanildi. Lekin u ikki jildli lugʻatning toʻldirilgan yoki qandaydir oʻzgartirishlar bilan qayta ishlangan nashri emas, balki leksikografiyaning yangi yutuqlarini hisobga olgan holda yaratilgan mutlaqo yangi lugʻatdir.[2;5] Maqsadi va mazmuni umumiy boʻlgan davriy ketma-ketlikda tuzilgan lugʻatlarda mashinasozlik, aviatsiya, energetika, metallurgiya, ayrim binokorlik va arxitektura kabi koʻplab bir-biriga yondosh sohalar uchun berilgan termin va tushunchalarni ifodalovchi leksemalar ikki xilda yaʼni maxsus pometa bilan berilgan terminlar va maxsus pometa bilan berilmagan terminlar berilgan. Masalan: *avtoklav, avtokran, avtosugʻorgich, akvalang, amortizator, akkumulyator, benzovoz, gazogenerator, gidrogenerator, gidrolokator, dvigatel, dvijok, dirijabl, drel, karbyurator, kondensator, kultivator* kabi. Vaholanki, texnika va politexnikaga oid lugʻatlarda bunday leksemalar

soha termini sifatida keltirilgan va ma'nolari izohlangan. Bunday leksemalar 2 tomli "O'zbek tilining izohli lug'ati" da ham, 5 jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" ning har ikkala nashrida ham bir qanchani tashkil etadi. Ayrim leksemalarga oid maqolalar ularni "texnika va texnologiya" sohasi termini ekanligini izohlab keladi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida, davriy ketma-ketlikda yaratilgan izohli lug'atlarga kiritilgan terminlarning aksariyat qismi, xalqaro terminlelementli birliklar va terminlar ekanligi, ular o'z va o'zlashgan qatlamga oid so'z va qo'shimchalarning qo'shilishi natijasida hosil bo'lganligi tahlil qilindi. Bu esa texnika terminlarini, nafaqat texnikaga, balki soha terminlari va birikmalarini o'rganishda va ularni tasniflashda xalqaro terminlelementli birliklar ilm-fan taraqqiyotining hamda soha terminologiyasining qo'llanilish doirasi kengayishiga, texnika terminlarining va soha terminologiyasi lug'at tarkibining boyishiga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomli.– Moskva: "Rus tili" nashriyoti, 1981.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli.– Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2020.
3. H.Dadaboyev. O'zbek terminologiyasi. – T: 2019.
4. Madvaliyev A. Izohli lug'atda xalqaro terminlelementli so'z va terminlarga munosabat masalasi // O'zbek tili va adabiyoti, 2009, 2-son, 38-43 betlar.
5. Беркович Т.Л. Содержание и функции помет для терминологической лексики в общих словарях разных типов // Словарные категории. Сборник статей. – М.: 1988. – С.206.
6. Инструкция для составления "Словаря современного русского литературного языка". – М.: 1958. – С.43.
7. Politexnika lug'ati. – Toshkent: "O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi" 1989.
8. Современный англо-русский политехнический словарь. – Бишкек.: 1997. –С. 687
9. Saidov O'. "O'zbek tilining izohli lug'atlarida ish yuritishga oid terminlarning berilishi": Filol.fan.bo'yicha fals. dokt....diss. – Qarshi, 2023. – B. 157.
10. Mavlyanov S.J. "O'zbek tili diplomatik terminlari": Filol.fan.bo'yicha fals. dokt....diss. – Toshkent, 2022. – B. 148.